

XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDALARINING G'UYAVIY VA NAZARIY QARASHLARI

*Raxmatov Murod G'aybullayevich, Navoiy davlat universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

IDEOLOGICAL AND THEORETICAL VIEWS OF THE REPRESENTATIVES OF THE TURKESTAN JADID MOVEMENT AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

*Rakhmatov Murod Gaybullayevich, Associate Professor of Navoi State
University Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences*

ИДЕЙНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ТУРКЕСТАНСКОГО ДЖАДИДСКОГО ДВИЖЕНИЯ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

*Рахматов Мурод Гайбуллаевич, доцент Навоийского
государственного университета, доктор философии по истории
(PhD)*



<https://orcid.org/0009-0002-2054-987X>

e-mail:
raxmatov.80@bk.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkiston jadidchilik harakati namoyandalarining g'oyaviy va nazariy qarashlari sifatida qilgan harakatlari ilmiy asoslar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: imperiya, Turkiston, дума, jamiyat, muhojir, matbuot, firqa, fenomen, istiqlol, xotira, hay'at, qurultoy, modda.

Abstract: This article examines the ideological and theoretical views of the Turkestan Jadid movement's leaders at the beginning of the 20th century, based on scientific foundations.

Key words: empire, Turkestan, дума, society, emigrant, press, faction, phenomenon, independence, memory, government, congress, article.

Аннотация: В статье на научной основе рассматриваются идейно-теоретические взгляды лидеров движения туркестанских джадидов начала XX века.

Ключевые слова: империя, Туркестан, дума, общество, эмигрант, пресса, фракция, явление, независимость, память, правление, съезд, статья.

KIRISH. Turkiston jadidlari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida tarix sahnasiga chiqdilar. Ularning g'oya va qarashlari asriy qoloqlikda yotgan hamda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmi ostida ingrayotgan Turkiston jamiyatini uyg'otish, o'zbek xalqini siyosiy va ma'rifiy islohotlar va o'zgarishlar orqali ozodlikka chiqarish bo'lgan. Turkistondagi jadidchilik harakati Turkiston o'lkasi (Toshkent, Samarqand, Farg'ona) hamda Buxoro amirligi va Xiva xonligida vujudga kelgan hamda xalqimiz o'rtasida keng tarqalgan.

ADABIYOTLAR

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori, Sadriddin Ayniy, Usmon Xo'ja, Abdulvohid Burhonov, Fayzulla Xo'jayev, Abdulqodir Muhitdinov, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Polvonniyoz Hoji Yusupov singari ko'plab taraqqiyparvarlar siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy masalalarni yoritishda ahamiyatga ega, taraqqiyparvarlik va milliy ozodlik g'oyalarining keng yoyilishida katta rol o'ynagan o'sha davrning vaqtli matbuot nashrlarida faol ishtirok etdilar. Jumladan, "Oyina", "Al-izoh", "Al-

TAHLILI.

isloh” jurnallari, “Turon”, “Buxoroyi sharif”, “Tarjimon”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” kabi ko‘plab gazetalarda mahalliy xalqning og‘ir ahvoli, chidab bo‘lmas darajadagi ijtimoiy turmushini yoritib, davlat mustaqilligi, maorif-madaniy sohalarini rivojlantirish yo‘lida jiddiy ijtimoiy-siyosiy talablar bilan chiqdilar. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy mutaxassisleri, madaniyat arboblari yetishib chiqdi[1].

MUHOKAMA. Turkiston o‘lkasi, Buxoro amirligi, Xiva xonligi Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylangach, hududlarda asosiy xom ashyo yetkazib beruvchi bazaga aylanishi, siyosiy-iqtisodiy huquqlarining cheklanishi, paxta yakka hokimligining o‘rnatilishiga sabab bo‘ldi. Bunday holat o‘lkada milliy sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishiga, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning cheklab qo‘yilishiga olib keldi. Iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida jadidlar iqtisodiy ilmni o‘rganish zarurligi, ishlab chiqarish sanoatini, iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni, ilg‘or texnika va texnologiyalarni jalb etish, banklar faoliyatining o‘rni va ahamiyati, savdo-tijorat ishlarini ilmiy asosga qurish, tadbirkorlik, agrar iqtisodiyot samaradorligini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratdilar. Shu maqsadda ularning mafkurasi negizida raqobatbardosh bozorlar safini shakllantirish jarayonlarini faollashtirish, taraqqiyparvar demokratik institutlarni vujudga keltirish, o‘lkada o‘ziga xos milliy rivojlanishni yaratish kabi vazifalarni o‘zida qamrab olgan. Shuning uchun amirlik iqtisodini rivojlantirish va taraqqiy ettirish borasidagi birinchi qadam millatni o‘qimishli, ma‘rifatli qilish, aholining barcha qatlamlariga ziyo tarqatish, doimo ozod va mustaqil yashashga intilgan buyuk millat ekanligi ruhiyatini xalqqa singdirish, o‘lka bundan keyin metropoliya iqtisodiyotiga xomashyo yetkazib beruvchi makon bo‘lib qolmaslikka chaqirishdir. Ikkinchi qadam Turkistonda o‘zining milliy iqtisodiyotini vujudga keltirish, mustaqil iqtisodiyot asoslarini qurish, jahon mamlakatlari bilan tenglik va manfaatlilik tamoyili asosida hamkorlik qilish edi[2].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat taqozosi bilan maydonga kelgan jadidlar savdo tijorat faoliyatini tubdan isloh qilish va takomillashtirish borasida o‘z fikrlarini ilgari surdilar. Jumladan, Fitrat savdo va tijorat ishini uch tamoyilga asoslanib izohlaydi: birinchidan, savdo va

tijorat ishida millat, Vatan, yurt manfaatlari hisobga olinishi, ana shu manfaatlardan kelib chiqib o‘zaro ittifoq bo‘lib faoliyat ko‘rsatish lozim. Ikkinchidan, savdo va tijorat ahli tovar va xizmatlar bozorida ishlab chiqarishni zamonaviy sanoat asosida qurishiga yordam ko‘rsatish lozim. Zero, tovarlarning arzonlashuvi ularning sotilishini tezlashtiradi va foyda olishni kafolatlaydi. Uchinchidan, tijorat ahli savdo ilmini zo‘r berib o‘qib-o‘rganishlari lozim. U vatandoshlarini tijorat ilmini o‘rganishga da‘vat etib: “Sizlar o‘z farzandlaringizni tijorat maktablariga yuborib savdo ishiga o‘qitingiz, chunki begonalar tijorat ilmidan xabardor. Siz esa bexabarsiz”, deb yozadi[3].

Shuningdek, Fitrat savdo va tijorat faoliyati bilan shug‘ullanish, undan daromad topib tirikchilik o‘tkazish musulmonlar uchun halol amallardan ekanligi Qur‘oni Karim va “Hadis”larda uqtirilganini quyidagicha ta‘kidlaydi: “...Islom shariati tijorat va davlatmandlikni man etgan emas, balki amr etgan. Biroq shuni ham bilishimiz lozimki, islom bizni tijoratdan man etmagan-u, biroq baxillik, isrofgarchilik va ta‘magirlikdan qattiq tortgan. Shunday ekan, har kim xudoning va uning rasuli mute‘i ekan, puldorlik va tijorat ishiga intilishi lozim...”[4].

Buxorodagi jadidchilik harakatining boshqa bir yirik namoyandasi Sadridin Ayniy (1878-1954) zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali sanoatni yanada rivojlantirish va buning natijasida iqtisodiy inqirozni bartaraf qilish mumkinligini ta‘kidlab, “agar ishlarimizni shul usulda qo‘ysak bir zamon kelurki, Turkiston bir bo‘ston holiga kelur, zovudlar, fabrikalar, temir yo‘llar va boshqa madaniy korxonalar ila to‘la bo‘ladur”, deya opzy qilgan[5].

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida turkistonlik savdogarlar asosan paxta savdosi bilan shug‘ullanganlar. Biroq, ular savdo-sotiq ilmini yaxshi bilmaganliklari sababli ham paxta savdosidan zarar ko‘rganlar. Ayni vaqtda xorijiy savdogarlar savdo ilmini, savdo-sotiq qonun-qoidalarini yaxshi bilganliklari sababli paxta savdosidan katta foyda ko‘rganlar. Fitrat turkistonlik savdogarlarning zamonaviy tijorat ilmidan xabarsizligi va o‘zaro ziddiyatlarini paxta savdosi misolida bayon etadi: “Sizlarning falokatga botishlaringizning sababi faqat bugina emas, yana boshqa yirik bir illat ham bor. Ajnabiylar o‘zaro ittifoq va birlikka ega. Sizlar esa pullaringizni hamisha o‘zaro ichki ziddiyatlaringiz

yo'lida sarf etasizlar. Molni sotib olayotgan paytda, sizning fikr-o'yingiz buxoroli falon boy ustidan g'alaba qilish borasida bo'ladir. Undan ko'proq mol olib, uni sindirsangiz bas.

Shuning uchun juda ko'p hollarda birlaringizga qasd qilib, paxtani Maskov narxidan to'rt baravar oshiq olib, hisobsiz zarar ko'rgansizlar. Teri sotib olishda ham ahvol shu. Biroq ajnabiylar bu yo'lni tutmaydirlar. Ular bozorga kirib savdo qilishidan avval, to'planishib maslahat qilishadi. Ko'radirlarki, paxtaning narxi Maskovda o'n besh so'm, ular bu yerda o'n so'mdan oshirmaslikka qaror qilishadir. Keyin bozorga kirib, o'z ahdlarida turib savdo qiladirlar. Paxta narxi o'n so'm-u bir tangaga teng kelishi bilanoq hammalari hamyonlarining og'zini bekitadirlar. Chorasiz qolgan dehqon yana bir tanga tushib, arzon sotadir... Shuning uchun xorijiy savdogarlar foyda ko'radilar, sizlar – zarar"[6] deb ta'kidlaydi.

Turkistonda jadidchilik harakatining rahnamosi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) savdo-tijorat, dehqonchilikda texnikani jalb qilish, yoshlarni ilmiy qilish tarafdorlaridan biri edi. U savdo-tijorat ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, banklar faoliyatini rivojlantirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni yaxshilashga qaratilgan g'oyalarni ilgari surdi[7].

Maxmudxo'ja Behbudiyning banklar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan mulohazalari va ilgari surgan fikrlari iqtisodiyotning rivojlanishida banklar faoliyatining o'rnini va ahamiyati katta ekanligini anglatgan. To'g'ri, o'sha davrda banklardan olingan kreditlar evaziga savdogarlar, boylar va aholining boshqa tabaqalari xonavayron bo'lgan. Lekin taraqqiyparvarlarning fikricha bunga banklar emas, balki mijozlarning olgan kredit mablag'ini to'g'ri sarflamaganligi sabab bo'lgan. Bu borada M.Behbudiy "Oyna" jurnalining 1914-yilgi sonida e'lon qilingan maqolasida banklar faoliyatining ijobiy tomonlarini tushuntirish bilan bir qatorda mahalliy aholining tijoratdagi sinish sabablarini misollar bilan keltirib o'tgan[8]. Jumladan, "savdoning inqiroziga sabab bo'layotgan omillarlar biri savdogarlarning mablag'larni to'y va aysh-ishratga ortiqcha sarf qilayotganligi bo'lib, bu mablag'larning aksariyati banklardan olinayotgan qarzlarning hisoblanib, uni vaqtda qaytara olmaganliklari uchun butkul xonavayron bo'lgan"ligini yozgan[9].

Maxmudxo'ja Behbudiy hayotiy faoliyatida ko'plab mamlakat va shaharlarga sayohat qilib, turli millat vakillari bilan suhbatda bo'lgan. O'zga millat

vakillarining bizning Turkiston to'g'risida bildirgan fikrlarini u xotiralarida keltirib o'tadi.

Yahudiylardan biri derki, "Turkiston eski dunyoning Amriqosidur. Paxta, ma'dan, g'alla har nimarsa bor. Turkiston oltindir. Agarda Rusiya hukumati mone' bo'lmasa, barcha mulkimni sotib, pulig'a Turkistondan yer olib, dehqonchilik etardim. Oltun berib, yer olib, so'ngra olmos ko'tarar edim"[10].

Bundan ko'rinib turibdiki, Turkiston eski dunyoning Amerikasi ekanligi, hosildorlik jihatidan ilg'or bo'lib, paxta, g'alla va boshqa xildagi ekinlarni undirish mumkinligini, Turkiston mamlakatining yer va iqlimi oltinga teng darajada bo'lganligini ta'kidlaydi. Agar Rossiya imperiyasi qarshilik qilmasa, yahudiy o'zining barcha mulkini sotib, puliga Turkistondan yer olib dehqonchilik qilishli to'g'risidagi fikrlar mamlakatimiz tuprog'i haqiqatda ham oltinga teng ekanligini ko'rsatadi.

M.Behbudiy Turkistonda tijorat sohasining sustligi, raqobatsizligi sabablarini quyidagicha baholaydi: "...Hisobsizlik, aql va tarbiyasizlik bizni barbod etdi. Naf' va zararlarimizni bilmaganimiz, tijorat ishi va ahli zamonadan bexabarligimizdan, xulosa va jaholat va nodonligimizdandur. Qo'limizda bor nimarsamizni behuda odatlarga sarf etarmiz. Ko'rpamizga qarab oyoq uzatmaymiz. Qarz ila imorat, to'y qilarmiz. Isrof qilarmiz. Molni sotib olish va sotish joyini bilmaganimiz, tijorat maydonida nodonligimizdan boshqalar tarafidan aldanganimiz bu bizning ojizligimizdir"[11].

Behbudiy "Samarqand" gazetasining 1913-yil 12-iyul sonida "Ehtiyoji millat" nomli maqolasida Turkistonning tashqi aloqalarini asosan chet ellik savdogarlar bajarganligi, ular yerli aholidan mahsulotni arzon-garovga olgan holda tashqi bozorda qimmat narxga sotganligi, shu sababdan ham yetishtirilgan mahsulotlardan olinadigan foydaning asosiy qismi ularning cho'ntagiga tushganligi haqida kuyunib yozgan. Bundan tashqari, Behbudiyning yozishicha, "Bizda shohi, adras, beqasam, alacha...bofliklar bor. Agarda bir nafar texnik va muhandisimiz bo'lsa, bu dastgohlarni isloh etar, aholi obod bo'lur. Valloh, yaqin vaqtda "doka" bofillarimizdek zoye' bo'lib ketar. Chunki Ovrupa yangi asbob ila mundin yaxshi qilib chiqarur"[12].

Milliy mutaxassislar yetishtirish dasturini amalga oshirish dolzarb masala ekanligini barcha jadidlar kabi Rajabzoda Niyoziy [13] e'tirof etib, bu haqda o'z fikrini quyidagicha bayon qilgan: "... Ilm-ma'rifatsiz hech bir

millat muborazayi hayot maydonida turolmas. Xoh ul millat millati hokim va xoh millati mahkum bo'lsun, ilm-u ma'rifatdan mahrum bo'lganligi uchun boshqa san'at va hunar sohibi bo'lgan mamlakatlarning oyog'i ostida ezilurga majbur bo'ladur. Chunki ziroat, sanoat, tijorat kabi lavozimoti insoniyatniig vujudga kelmog'i maktab, madrasalarning tartiblik darslarining zamon va makonga muvofiq bo'lganligidandir...." Niyoziy Rajabzoda yeri ko'p, xalqi oz Eron va Buxoroni Angliya va Germaniya bilan taqqoslar ekan, bu yerliklarning ko'plab mahsulotlarga muhtojligi borligini e'tirof etib, "Buxoro va Turkiston musulmonlari uchun ziroatdan so'ngra eng ahamiyatli narsa savdo va tijoratdir", deya ta'kidlaydi. Buning uchun muallifning fikriga ko'ra, "... maktabda boshqa dunyoviy fanlar bilan birga savdo va tijoratga rag'bat uyg'otuvchi, bu sohalarning sir-asrorlarini o'rgatuvchn fanlarni ham o'quv dasturiga kiritish lozim"[14].

XX asr boshlarida mamlakatimizda irrigatsiya, sun'iy sug'orish ishlari holati qoniqarsizligi, zamon talabiga javob beradigan texnikaviy moslamalar yo'qligi, suv ta'minotining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, ko'plab katta yer maydonlaridan foydalanilmay kelinishiga, qishloq xo'jaligi samaradorligining pasayishiga olib keldi.

Buxoro amirligining iqlimi va geografik sharoiti yerlarni sun'iy sug'ormay turib, qishloq xo'jaligini rivojlantirishga imkoniyat bermaydi. G'arbiy Buxoroda, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo vodiylarida yerlarning ko'pchiligida sug'orish yo'li bilan dehqonchilik qilinadi. Sharqiy Buxoroda, Surxondaryo va Amudaryoning yuqori qismida sug'orish talab qiladigan yerlar foizi katta. Biroq sug'orish shaxobchalari juda qoniqarsiz holatda, shuning uchun ham katta yerlar foydalanilmay qolgan.

Buning sababi shuki, bir tomondan, suv manbalarining o'zida suv juda kam (Qashqadaryo vohasi) va Zarafshonning yuqori qismlarida va Samarqand viloyatida suvdan ko'p foydalaniladi. Natijada, Zarafshon Buxoro hududiga o'tganida juda kamsuv bo'lib qoladi. Ikkinchi tomondan, irrigatsiya shaxobchalari qoniqarsiz ekanligi, shuningdek, texnikaviy moslamalar yo'qligi sababli suv noto'g'ri taqsim qilinayotganligidan yerlarni sug'orib qilinadigan dehqonchilikka katta zarar yetkazgan.

Buxoro amirligida agrar sohani rivojlantirish, uning samaradorligini ta'minlash bo'yicha Fitratning 1918-yilda Yosh buxoroliklarning Markaziy Qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan "islohotlar loyihasi"ni ishlab chiqdi. Mazkur

loyihada cho'l va dashtlar hisobidan ekin maydonlarini kengaytirish, dehqonchilik madaniyatini oshirish, shu maqsadda keng miqyosdagi irrigatsiya tadbirlarini hayotga tatbiq etish, takomillashgan yagona sug'orish tarmog'ini yaratib Samarqand va Buxoro o'rtasida adolatli suv taqsimotini yo'lga qo'yish, Buxorodagi yerlarni sug'orish ishlariga qisman Amudaryodan foydalanish, dehqonlarga imtiyozli kreditlar berish, qishloq xo'jaligida texnikadan keng foydalanish nazarda tutilgan[15].

Taniqli davlat arbobi, Buxorodagi jadidchilik harakatining rahbarlaridan biri Fayzulla Xo'jayev (1896-1938) fikricha, loyihada Buxoro amirligi aholisining farovonligini oshirish, o'lkani iqtisodiy-siyosiy va harbiy jihatdan mustahkamlash, qishloq xo'jaligini intensivlashtirish uchun ko'riladigan chora tariqasida qishloq xo'jalik kreditlarini va dehqonchilik ishlarini mexanizatsiyalashni taklif qiladi. Buning uchun Buxoro amirligida qishloq xo'jalik bankini tashkil etish va uning bo'limlarini bekliklar hududida ko'paytirish, qishloq xo'jalik mashinalarini jalb qilish, qishloq xo'jalik maktablari ochish va agrar sohasidagi bilimlarini omma orasida targ'ib qilish, yerga quvvat beradigan hosildorlikni oshiruvchi vositalardan foydalanish kerakligi ko'rsatilgan[16].

Fitrat tomonidan ishlab chiqilgan dasturda ilk marta Buxoro amirligi zamirida huquqiy davlat yaratish masalasining yechimini ko'rsatdi. U amirlikdagi monarxik tuzumni bir qator Yevropa mamlakatlari namunasidagi marifatli monarxiya bilan almashtirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hisobidan xalq farovonligini yuksaltirish, mamlakatning iqtisodiy va mudofaa qudratini ko'tarishni taklif qildi. Fitrat loyihadagi Buxoroda qishloq xo'jaligi bankini ochishni, joylarda uning juda ko'p sho'balarini vujudga keltirishni, qishloq xo'jaligi maktablarini, xalq o'rtasida ziroat bilimlarini tarqatish ham ko'rsatilgan. Mana bu choralarni amalga qo'yish to'g'risida Ziroat nozirligi degan idora tuzishni taklif qiladi[17].

NATIJALAR. Jamiyat va davlat taraqqiyotida iqtisodiy sohadagi rivojlanishlar muhim o'rin tutishini chuqur anglagan Fitrat vatandoshlariga quyidagi murojaat bilan chiqdi: "...buxorolilar Allohning ne'mati bo'lg'an tabiiy boyliklardan foydalanmas ekansiz, begonalar bu boyliklarga ega bo'lib, ularning har birlari ustidan hayratangiz mashinalar va fabrikalarni o'rnashtiradirlar. Dunyo-

dunyo pul ishlab oladilar. Minglab xizmatchilar bu ishga safarbar qilinadir. U vaqtda sizlarning farzandlaringiz chorasiz qolib, begonalarning xizmatlariga bo'yin egishlari muqarrar..."[18].

Sadriddin Ayniy Turkistonning boyliklari masalasiga bag'ishlangan maqolasida o'lkadagi yer osti konlari xususida so'z yuritib, "Chet millat olimlarining izlab topg'onlariga qaraganda bizam Turkistonda tosh ko'miri, temir, kumush, oltun, yer moyi (neft) va boshqa har xil ma'danlar bor ekan. Ameriko xalqi, nemis va inglizlar shul ma'danlar orqasinda butun yer yuzinda eng boy odamlardan bo'lg'on holda, bizlar faqir yashaymiz"[19], degan fikrlari bilan mamlakatda mavjud imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanilmayotgani tanqid qilingan.

Turkiston jadidlari 1917-yilga kelganda o'zlarining milliy mustaqil davlat qurish to'g'risidagi fikrlarini yangi bosqichda rivojlantirdilar. Bu yo'lda ular muxtoriyatchilik g'oyalariidan foydalanishdi[20].

XULOSA . Xulosa qilib aytganda, Turkistondagi jadidchilik harakatining yirik namoyandalari qarashlarida uchta asosiy masala: siyosiy mustaqillik, iqtisodiy mustaqillik, ma'naviy-ma'rifiy mustaqillik g'oyalari bo'rtib turadi. Taraqqiyparvar bobolarimiz Turkistonda jadid maktablari va gazetalari tashkil qilish orqali xalqni ma'rifatli qilishga intilgan bo'lsa, siyosiy islohotlar orqali Turkistonni mustamlakachilik zulmidan qutqarish, Buxoro va Xorazmda mavjud monarxik tuzumni demokratik boshqaruv usuli bilan almashtirish yo'lida harakat qildilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш (Туркистон ва Бухоро жадидчилиги тарихига янги чизгилар). Даврий тўплам. – №1. – Тошкент: Университет, 1999. – Б. 10-12.
2. Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. Икки жилдлик. Биринчи жилд (1900-1939). Масъул муҳаррир: академик Азамат Зиё. – Тошкент: Фан, 2024. – Б. 118-120.
3. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. Ҳинд сайёҳи баёноти. – Б.167.
4. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. Ҳинд сайёҳи баёноти. – Б. 163-164.
5. Айний С. Туркистон бойлиги // "Турк эли" (Тошкент). 1917 йил 4 октябрь.
6. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. Ҳинд саёҳи баёноти. – Б. 166.
7. Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. Икки жилдлик. I-жилд. Нашрга тайёрловчи: Сирожиiddин Аҳмад. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 512 бет.
8. Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган 2-нашри. Нашрга тайёрловчи, тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Қосимов. – Тошкент. Маънавият, 1999. – Б. 167-168.
9. Маҳмудхўжа Бехбудий. Оҳ, бонкалар бизни барбод этди // Ойна. 1914. № 19. – Б. 344.
10. Маҳмудхўжа Бехбудий. Қасди сафар // Танлаган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б. 69.
11. Маҳмудхўжа Бехбудий. Оҳ, бонкалар бизни барбод этди // Ойна (Самарқанд). 1914. № 19. – Б. 342.
12. Маҳмудхўжа Бехбудий. Эҳтиёжи миллат // Самарқанд газетаси. 1913 йил 12 июль. – Б. 3.
13. Абдурауф Фитрат ташаббуси билан Бухоро шаҳрида Туркистон минтақасида биринчи бўлиб ташкил этилган Шарқ мусиқа мактабида биринчи раҳбар сифатида Ражабзода Ниёзий ҳам шогирдларга таълим бера бошлади.
14. Насиров О.Н. XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистонда акциядорлик жамиятлари ва ширкатлар тарихи. Тарих фанлари номзоди дисс... автореферати. – Тошкент, 2009. – Б.19.
15. Наимов Н. Маърифатга бахшида умр. – Бухоро: Дурдона, 2018. – Б. 93.
16. Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар. Уч томлик. Том 1. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 134.
17. Файзулла Хўжаев. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар (Қайта нашри). – Тошкент: Фан. 1997. – Б. 109.
18. Абдурауф Фитрат. Ҳинд саёҳи баёноти // Танланган асарлар. 1-жилд. – Б. 168.
19. Айний С. Туркистон бойлиги // Турк эли. 1917 йил 4 октябрь.
20. Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти: миллий демократик давлатчилик қурилиши тажрибаси. – Тошкент: Маънавият, 2000; Ражабов Қ. Туркистон Мухторияти вазирлари ҳамда Миллий Мажлис аъзолари ҳаёти ва тақдири. – Тошкент: Vodomzor invest, 2021; Ўша муаллиф. Туркистон Мухторияти тарихи. Иккинчи нашр. – Тошкент: Фан, 2023.